ABDULLA AVLONIYNING YOSH AVLOD TA'LIM-TARBIYASI YO'LIDAGI BUYUK XIZMATLARI

Murodov Nodirbek Oybek o'g'li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Ta'lim muassasalarini boshqarish" yo'nalishi 1-kurs magistranti.

Annotatsiya: Maqolada o'zbek ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning hayoti va ijodiy merosi bugungi kunda o'rganilishi zarur bo'lgan dolzarb masala sifatida talqin qilingan.
Kalit so'zlar: Jadidchilik, jaholat, ma'rifat, byurokratik qarash, ong, mafkura, ilm, chor hukumati, erkinlik, ma'naviyat.

O'zbek xalqi o'ziga xos ma'naviyat va madaniyat ildizlariga ega. Bu mamlakatda yashab ijod qilgan juda ko'p buyuk siymolar mavjudki, ular qoldirgan boy adabiy meros bugungi avlodlar uchun dasturul amal bo'lib xizmat qila oladi. Xususan, bu buyuk allomalar ichida Abdulla Avloniy pedagogik merosi alohida mazmun kasb etishi orqali mavjud manbalardan o'ziga xos tarbiyaviy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Abdulla Avloniy XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma'rifatparvar shoir, dramaturg, journalist, olim davlat va jamoat arbobidir. Turkiston madaniy hayotida yuz bergan inqilobiy o'zgarishlar davrida millatning tom ma'nodagi rahnamosi sifatida jadidlarning yetakchi g'oyalarini ilgari surgan xalq yetakchisi hisoblanadi. Avloniy butun umri davomida ustozlik bilan shug'ullanib, ko'plab o'zbek xalqi farzandlarini ilm bulog'idan suv ichishlariga ko'maklashdi. U yaratgan ta'rixiy asarlarning tarbiyaviy ahamiyati chuqur ma'naviy mazmunga ega. Chunonchi, ushbu she'riy satrlarda ham adibning nechog'li ilm fidoiysi ekanligi aniq ko'rinadi:

Topar ilm ila odam o'g'li kamol,
Yeturmas kamola jamol ila mol,
Kerak o'rtanur ilm uchun sham'dek
Tanimoq xudoni ilmsiz maqol...»[1] ,

Avloniy yoshlarga nasihat qilar ekan, ilmni kamol topish uchun ozuqadek muhimligini ta'kidlaydi. Ya'ni, inson voyaga yetishida to'g'ri ovqatlanish va hayotiy ehtiyojlar qanchalik zarur bo'lsa, ilm ham shunday ahamiyatda ekanligini uqtiradi. Kamolga yetgan insonning jamoli ilm ila munavvarligini chuqur his etadi. Kerak bo'lsa sham kabi o'rtanib, ilm sohibi bo'lishlikka da'vat etadi. Allohni ilmsizlik ila tanimoq, bu mazmunsiz aytiluvchi maqoldek ekanligini bong uradi. Shuning uchun ilm orttirish, ma'naviyatni kengaytirish odam bolasi uchun suv va havodek zarurligini takrorlaydi. Buning boisini bugungi davr ham isbotlab bemoqda. Chunki ko'plab vatandoshlarimiz bilimsizliklari tufayli jaholat botqog'iga botib ketmoqdalar. Avloniy ham ilm nuridan bebahra kimsalarni jaholat qurbonlari deb hisoblagandi.

«Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur. To'g 'ri yo'lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratdan mas'ul bo'lishimizga sabab bo'lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur... Ilmning foydasi shu qadar ko'pdirki, ta'rif qilg'on birla ado qilmak mumkin emasdur. Bizlarni ilm jaholat qorong'ulig'idan qutqarur, madaniyat, insoniyat, ma'rifat

[1] A.Avloniy. Toshkent tongi. - T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va sa'nat nashriyoti, 1979,211-212- betlar

dunyosig‘a chiqarur, yomon fellardan, buzug‘ ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur...»[2]

Avloniy jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi sifatida millat bolalarini savodli qilish bilan birga, ularni ma’naviy-madaniy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiluvchi badiiy-publisistik asarlar ham yaratdi. O‘zining yashash manzilida ochgan “Usuli jadid” maktablarida o‘qitish manbasi sifatida “Adabiyot yoxud milliy she’rlar”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni”, “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi darslik va o‘qish kitoblarini tuzdi. Mazkur kitoblar bolalarni xat-savodga o‘rgatish barobarida ularda mustaqil fikrlash va o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ya olishga o‘rgatishda beqiyos ahamiyat kasb etgan. Avloniy bolalarning badiiy tafakkurini o‘stirishda badiiy ijod namunalarining ahamiyatini yaxshi tushungan. Sovet mafkurasi hukmron o‘sha davrda, ayniqsa, milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy barkamollik juda zarur edi.

Ma’lumki, bolalarga ifodali o‘qishni o‘rgatish adabiy o‘qish darslarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunday o‘qish adabiy matnni chuqur tushunishga olib boradi. Badiiy asarni chiroyli, ifodali qilib o‘qish natijasida asar voqealari o‘quvchi ko‘zi oldida namoyon bo‘ladi. Avloniy savod chiqarishga qanchalik katta e’tibor bergan bo‘lsa, tushunib o‘qishga va badiiy asarni his qilishga ham shunchalik ko‘p diqqat qilgan.[3]

Avloniy yo‘qsil bolalarni o‘qitishga ham alohida e’tibor berdi. 1909 yilda o‘zi boshchiligida “Jamiyati xayriya” tuzib, yetim bolalarni o‘qitdi. Keyinchalik Toshkentning Degrez mahallasida 2 sinfli maktab ochib, u yerda bolalarga dunyoviy bilimlardan ta’lim berdi. Uning bu urinishlari chorizm hukumati qarshiliklariga yuz tutsada, Avloniy o‘z taraqqiyparvar g‘oyalaridan og‘ishmadi. Xalqning ongini zaharli g‘oyalardan asrash maqsadida 1913 yilda “Turon” teatr truppasini tashkil etishda faol qatnashdi. Teatrda millat ma’naviyatini o‘stirishga xizmat qiluvchi ko‘plab asarlar qo‘yilishi uchun bir qancha chet tilidagi adabiyotlarni o‘zbek tiliga tarjima qildi. Ushbu asarlardagi ilg‘or g‘oyalarni tomoshabin yuragiga yetib borishi uchun ta’sirchan badiiy mushohadalardan foydalandi.

Avloniyning sahna asarlari Toshkent, Farg‘ona, Andijon, Qo‘qon, Xo‘jand kabi shaharlarda qo‘yilgan. Bu asarlarda XX asr boshlaridagi Turkiston hayotining keng manzaralari o‘z ifodasini topgan. [4] Siyosiy va ma’naviy qaramlik ustunlik qilgan o‘sha davrda odamlar ongiga ta’sir qilishning yagona yo‘li ularda ma’rifatni tarkib toptirishdan iborat edi. Bu yo‘lda esa, avvalo, yosh avlod tarbiyasini go‘zallashtirmoq ustuvor vazifa ekanligini Avloniy yurakdan his qilgan. Shu bois uning she’riyatida xalqni uyg‘otish kayfiyati ustunlik qiladi:

Har kun o‘luram shomg‘acha men g‘amga giriftor,
Har shab yonaram otasha parvona kabi zor,
Hech kimsa emas bu meni ahvolima voqif,
Men xastayamu millatim o‘lmish nega bemor.[5]

Avloniy o‘zining bemorligi millat iztirobidan, erkinliklarining mahrum etilayotganligidan ekanligini aytadi. Chunki Turkistonda o‘rnatilgan mustamlakachilik zulmi XX asr boshida yanada kuchaygan, mahalliy xalqni iqtisodiy talash bilan birga ma’nan ezish chorizm hukumatining odatiga aylangandi. Xalqni jaholatda ushlab turishga, savodsizlik va ma’naviy qashshoqlantirishga intilardilar. Zolimlar qanchalik urinmasin, mahalliy aholini hurlik, ozodlik uchun kurashishdan to‘xtata olmadilar. Ziyolilar tarafida turib adib xalqni uyg‘otish, milliy ongini oshirish asnosida birlashtirib vatan ravnaqi uchun kurashuvchi kuchga aylanishlarida xizmat qildi.

---

[2] A.Avloniy. Toshkent tongi. - T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa‘nat nashriyoti, 1979, 274-bet
[3] 1U. Dolimov. Abdulla Avloniy va maktab. «0‘zbek tili va adabiyoti», 1990,4-son.
[4] https://kh-davron.uz > muborak-kin, Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq, 16.06.2018
[5] L.Xalilov tahriri ostida, A.Avloniy, Turkiy Guliston yoxud axloq, 4 bet

Ma’lumki, XIX asrda Turkistonda o‘qitish tizimi asosan diniy bilimlarni egallash bilan bog‘liq bo‘lgan. Shuning uchun tub yerlik aholi farzandlari masjid va madrasalarda, shuningdek, ayrim xonadonlarda domlalar tashkil qiladigan va diniy duolarni o‘rganishga qaratilgan yo‘nalishda ta’lim-tarbiya olishgan. O‘qitishning sinf-dars tizimidagi ko‘rinishi va dunyoviy bilimlarning keng o‘rganilishi chor hukumatining mustamlakachilik paytidan boshlab kirib keldi. Ammo mustabid tuzum boshqaruvidagi rus-tuzem maktablarida o‘qitish byurokratik xarakter kasb etdi. Bunday maktablarda bolalar ongi va tafakkuri rus g‘oyalariga yo‘g‘rilgan qarashlar bilan boyitildi. Bizning buyuk ajdodlarimiz merosi noto‘g‘ri talqin qilindi. Shu bois Avloniy o‘zi tashkil qilgan maktablarda o‘qitishning milliy va mintaqaviy xarakter kasb etgani holda, bolalarda umuminsoniy qadriyatlarni ulug‘lovchi ta’lim muhitini vujudga keltirdi. Bu haqda o‘zi shunday degan edi: «Maktabimda yer, odamlar, tog‘-toshlar, daryo, osmon haqida suhbatlar o‘tkazmoqqa harakat qilganimni Mirobod johil kishilari bilishib, meni kofir bo‘lding deb maktabimni yopdilar.”[6] Ko‘rinadiki, rus malaylari bu maktabda tarbiyalanayotgan bolalar istiqbolidan cho‘chiganlar va turli bahonalarni va’j qilib maktabni yopganlar. Ammo bu qarshiliklar Avloniyni o‘z yo‘lidan qaytara olmagan, albatta! Keyinchalik Toshkentning Degrez mahallasida ikki sinfdan iborat maktab ochdi. «Maktabda bolalarga jo‘g‘rofiya, tarix, hisob, handasa, hikmat (fizika) kabi fanlar bilan birga ona tili va adabiyot fanlaridan bilim beradi».[7]

O‘qitish jarayonida bilimlarni egallashning oson yo‘llarini topishga, bolalarning qiziqishlarini orttirishga xizmat qiluvchi mezonlarni ishlab chiqishga harakat qilgan. Bolalarni xat-savodini chiqarishga ko‘mak uchun yaratilgan “Birinchi muallim” kitobining mantiqiy davomi sifatida “Ikkinchi muallim” kitobini nashr etadi. Bu kitoblarni yaratishda shu paytgacha qo‘llanilgan darsliklardan iqtibos oladi. Bu haqda Avloniy yozadi: «Muhtaram muallim afandilarimizdan rijo qilurmanki, bizning «Muallimi avval» («Birinchi muallim»)imizdan ham olib, tajriba qilib, o‘qutub ko‘rsalar. Chunki har gulning bir isi, har mevaning bir ta’mi-mazasi bordur, bu ta’m esa tajriba sohiblarini kashfu ma'lum o‘lur…»[8]. Darslikning birinchi qismida harfhing yozilish shakllari tushuntiriladi, ikkinchi qismida didaktik xarakterdagi kichik-kichik matnlar beriladi.

Avloniyning katta yoshdagi bolalar uchun yaratilgan (o‘z ta’biri bilan shunday atagan) “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari tarbiya xususidagi mukammal asar sanaladi. Adib asarni fors shoiri Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asaridan ilhomlanib yozganligini qayd etadi: “Ban bu asari nochizonami bir necha muallim birodarlarimning iltijolari ila yozmoq va nashr qilmoqg‘a g‘ayrat va jasorat qilmish edim. Alhamdu lilloh val minna ikkinchi tab’ihada muvaffaq o‘ldum, chunki Turkiston maktablarida o‘z shevamizda (ya’ni o‘zbek tilida demoqchi) yozilmish mukammal “Axloq” kitobining shunday asarga tashna va muhtoj ekanlig‘i o‘zum muallimlar jumlasidan o‘ldig‘imdan manga ham ochiq ma’lum o‘ldi”.[9]

Manbalarda keltirilishicha Avloniy o‘zbek xalqini maorif va madaniyatini rivojlantirish bilan birga qo‘shni afg‘on xalqining ijtimoiy siyosiy hayotida o‘ziga xos rol o‘ynagan. U ma’lum muddat Afg‘oniston xalq maorifi vaziri, so‘ng Sho‘rolar Ittifoqining Afg‘onistondagi konsul-elchisi vazifalarida xizmat qilgan. [10] Ko‘rinadiki Avloniy nafaqat millatparvar shaxs, balki umuminsoniy qadriyatlar targ‘ibotchisi ham sanalgan. U dunyoda jamiki insoniyat borki, ilm-ma’rifat mayog‘ini baland ko‘tarishini yurakdan istagan. Shuning uchun u xoh o‘zbek bo‘lsin, xoh tojik, hattoki rusiyzabon bolalar bilan ham o‘z bilimlarini baham ko‘ra olgan. Avloniy yosh

[6] A.Boboxonov, M Mahsumov. Abdulla Avloniyning pedagogik faoiiyati va ta‘lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlari. -T.: «0‘qituvchi», 1966,43-bet.
[7] A. Zunnunov. 0 ‘zbek viloyati metodikasi tarixidan ocherklar, T.: «0‘qituchi», 1980,11-bet.
[8] U.Dolimov. A.Avloniy va maktab. «0‘zbek tili va adadiyoti», 1990-yil, 4-son.
[9] L.Xalilov tahriri ostida, A.Avloniy, Turkiy Guliston yoxud axloq, 3 bet
[10] https://tafakkur.net Abdulla Avloniy hayoti va ijodi

avlodni barkamol tarbiyalash orqali kelajakdagi hurlik orzusining ro‘yobini ko‘rgan. Ta’lim berayotgan o‘quvchilari ulg‘aygach chinakam ma’nodagi musta’qil mamlakatni egalariga aylanishlariga ishongan. Ana shu niyatlarning mevasi bugungi kunda Yangi O‘zbekiston timsolida aniq ko‘zga tashlanmoqda. Avloniy orzu qilgan kelajak mustaqillik tufayli yuksak yangilanishlarga yuz tutmoqda. Jadidchilik maktablari “yangi usul” degan ma’noni anglatganidek, bugungi O‘zbekiston ham yangi rivojlanish yo‘lidan davom etmoqda.

2017- yilning 3-avgust kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Ushbu uchrashuvda madaniyat va san’at sohasida yuzaga kelgan ko‘plab muammolar o‘rtaga tashlandi. Mazkur yig‘ilishda madaniyat, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va san’at sohasini tubdan isloh qilish maqsadida amalga oshiriladigan keng miqyosli ishlar xususida so‘z bordi, yosh iste’dodlar tarbiyasi, madaniyatimiz va adabiyotimizni rivojlantirish maqsadida yangi g‘oya, tashabbus va takliflar bildirildi: “Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o‘ta muhim masala borki, unga alohida to‘xtalib o‘tish zarur deb bilaman, u ham bo‘lsa, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog‘liq. Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun, haqiqatdan ham, yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir.”[11] Shu ma’noda Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o‘zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langanligi adibning boy pedagogik merosi ta’lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni o‘quvchilar qalbida shakllantirishda axloqiy va ma’naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda milliy maktab va qimmatbaho manba bo‘lib xizmat qilishi aniqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Avloniy. Toshkent tongi. - T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa‘nat nashriyoti, 1979,211-212- betlar
2. A.Avloniy. Toshkent tongi. - T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa‘nat nashriyoti, 1979, 274-bet
3. U. Dolimov. Abdulla Avloniy va maktab. «0‘zbek tili va adabiyoti», 1990,4-son.
4. https://kh-davron.uz > muborak-kin, Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq, 16.06.2018
5. L.Xalilov tahriri ostida, A.Avloniy, Turkiy Guliston yoxud axloq, 4 bet
6. A.Boboxonov, M Mahsumov. Abdulla Avloniyning pedagogik faoiiyati va ta‘lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlari. -T.: «0‘qituvchi», 1966,43-bet.
7. A. Zunnunov. 0 ‘zbek viloyati metodikasi tarixidan ocherklar, T.: «0‘qituchi», 1980,11-bet.
8. U.Dolimov. A.Avloniy va maktab. «0‘zbek tili va adadiyoti», 1990-yil, 4-son.
9. L.Xalilov tahriri ostida, A.Avloniy, Turkiy Guliston yoxud axloq, 3 bet
10. https://tafakkur.net Abdulla Avloniy hayoti va ijodi
11. Shavkat Mirziyoyev.Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. “Xalq so‘zi”, 2017-yil 4-avgust

[11] Shavkat Mirziyoyev.Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. “Xalq so’zi”, 2017-yil 4-avgust